

SUN'YI INTELLEKT TUSHUNCHASI, UNING JINOIY-HUQUQIY MAQOMI VA NAZARIY ASOSLARI**Fahriddinov Muhmmadyusuf Eldorjon o'g'li**

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19320321>

Annotatsiya. Mazkur maqolada sun'iy intellekt tushunchasi, uning huquqiy tabiatiga oid nazariy yondashuvlar hamda jinoiy-huquqiy maqomini aniqlash bilan bog'liq dolzarb muammolar tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida sun'iy intellektning fanlararo mohiyati, uning asosiy xususiyatlari – avtonomlik, o'z-o'zini o'rganish va qaror qabul qilish qobiliyati huquqiy mezonlar asosida yoritilgan. Shuningdek, sun'iy intellektning jinoyat subyekti sifatida e'tirof etish imkoniyati va chegaralari, ayb, sababiy bog'liqlik hamda javobgarlik subyektini aniqlashdagi murakkabliklar ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, jinoyat huquqi, jinoiy javobgarlik, jinoyat subyekti, ayb shakllari, sababiy bog'liqlik, avtonom tizimlar, algoritmik qarorlar, kiberjinoyatlar, deepfake, algoritmik ehtiyotsizlik, taqsimlangan javobgarlik, huquqiy maqom, raqamli texnologiyalar.

Аннотация. В данной статье анализируются понятие искусственного интеллекта, теоретические подходы к его правовой природе, а также актуальные проблемы определения его уголовно-правового статуса. В рамках исследования раскрывается междисциплинарный характер искусственного интеллекта и его основные признаки — автономность, способность к самообучению и принятию решений — с позиции правовых критериев. Кроме того, научно обосновываются возможности и пределы признания искусственного интеллекта субъектом преступления, а также сложности в установлении вины, причинной связи и субъекта ответственности.

Ключевые слова: искусственный интеллект, уголовное право, уголовная ответственность, субъект преступления, формы вины, причинная связь, автономные системы, алгоритмические решения, киберпреступность, дипфейк, алгоритмическая неосторожность, распределенная ответственность, правовой статус, цифровые технологии.

Abstract. This article analyzes the concept of artificial intelligence, theoretical approaches to its legal nature, and current issues related to determining its criminal legal status.

Within the scope of the study, the interdisciplinary nature of artificial intelligence and its key features—autonomy, self-learning, and decision-making capability—are examined from a legal perspective. The paper also substantiates, from a scientific standpoint, the possibilities and limits of recognizing artificial intelligence as a subject of crime, as well as the complexities in determining guilt, causation, and liability.

Keywords: artificial intelligence, criminal law, criminal liability, subject of crime, forms of guilt, causation, autonomous systems, algorithmic decisions, cybercrime, deepfake, algorithmic negligence, distributed liability, legal status, digital technologies.

1. Dolzarbliigi Zamonaviy davrda sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi va ularning jamiyat hayotining deyarli barcha sohalariga chuqur kirib borishi ushbu yo'nalishda yangi huquqiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Xususan, sun'iy intellekt tizimlarining avtonomligi, o'z-o'zini o'rganish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi an'anaviy jinoyat huquqi institutlari doirasida ularning huquqiy maqomini aniqlashni

Mazkur paragrafda sun'iy intellekt tushunchasining nazariy asoslari, uning kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, ushbu texnologiyaning jinoiy-huquqiy maqomi va olimlar tomonidan ilgari surilgan turli konsepsiyalar tahlil qilinadi.

Zamonaviy bosqichda sun'iy intellekt texnologiyalarining paydo bo'lishi va jadal rivojlanishi ushbu tartibga solish mexanizmlarini yanada murakkablashtirib, ularni yangi bosqichga olib chiqdi. Chunki sun'iy intellekt nafaqat texnik vosita sifatida, balki mustaqil qaror qabul qilish elementlariga ega bo'lgan tizim sifatida mavjud huquqiy va axloqiy me'yorlarning qayta ko'rib chiqilishini talab etmoqda. Mazkur holatning asosiy sababi sifatida sun'iy intellektga asoslangan tizimlarning murakkab vazifalarni bajarishda tobora ortib borayotgan darajadagi avtonomligi e'tirof etiladi. Darhaqiqat, bunday tizimlar nafaqat oldindan belgilangan algoritmlar asosida ishlaydi, balki o'z faoliyati davomida o'rganish, moslashish va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lib bormoqda. Bu esa ularning xatti-harakatlarini oldindan to'liq prognoz qilish va nazorat qilish imkoniyatlarini cheklaydi.

Yuridik fanlar doktori S. Bozarov ta'kidlaganidek, sun'iy intellekt tizimlarining jamiyatga bo'lgan potensial ta'sirini etik nuqtai nazardan baholash, ularning faoliyatini tushunish, oldindan ko'ra bilish va samarali nazorat qilish bilan bog'liq muammolar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.³ Zero, sun'iy intellekt tizimlari o'z tajribasi asosida o'rganadi hamda kelgusida hatto ishlab chiquvchilari tomonidan ham oldindan nazarda tutilmagan harakatlarni amalga oshirish ehtimoli mavjud. Ushbu holat esa ularni huquqiy jihatdan baholash va tartibga solish zaruratini yanada kuchaytiradi. Shu bois, sun'iy intellekt bilan bog'liq munosabatlarni kompleks va tizimli tarzda huquqiy tartibga solish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Davlat funksiyalaridan biri bo'lgan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda ayniqsa jinoyat-huquqiy munosabatlar alohida o'rin egallaydi. Chunki jinoyat-huquqiy normalar ijtimoiy xavfli qilmishlar uchun javobgarlikni belgilash, huquqbuzarliklarning oldini olish hamda jamiyatda tartib-intizomni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xalqaro normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatli oliy qadriyat sifatida e'tirof etilgan. Mazkur fundamental qadriyatlarni ta'minlash va himoya qilish maqsadida turli huquqiy munosabatlar shakllanadi hamda ular davlat tomonidan normativ-huquqiy mexanizmlar orqali tartibga solinadi.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligining asosiy vazifalari **Jinoyat kodeksining 2-moddasida** mustahkamlangan bo'lib, unga ko'ra shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni hamda insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan himoya qilish, shuningdek jinoyatlarning oldini olish va fuqarolarni Konstitutsiya hamda qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalashdan iboratdir.⁴ Mazkur vazifalardan kelib chiqib, zamonaviy globalashuv jarayonlari, ilmiy-texnik taraqqiyot va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jinoyat qonunchiligi bilan muhofaza qilinadigan obyektlarga nisbatan tajovuzlarning yangi shakllarini yuzaga keltirmoqda. Xususan, sun'iy intellekt va boshqa ilg'or texnologiyalar bilan bog'liq huquqbuzarliklar an'anaviy jinoyat tarkiblaridan farqli ravishda murakkab va ko'p qirrali xususiyat kasb etmoqda.

³ Bozarov S.S. Sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish doirasidagi axloqiy va huquqiy tusdagi masalalar. Yurist axborotnomasi 5-son, 2-jild. Toshkent 2022. 84 –89-betlar.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 2- moddasi //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 12.03.2026-y., 03/26/1121/0222-son // URL <https://lex.uz/docs/-111453>

Sun'iy intellekt tushunchasi o'z mohiyatiga ko'ra fanlararo xarakterga ega bo'lib, uni yagona, universal va barcha sohalar uchun bir xil qo'llaniladigan ta'rif bilan ifodalash bizningcha noto'g'ri hisoblanadi. Mazkur tushunchaga nisbatan turli ilmiy yo'nalishlar vakillari o'z tadqiqot predmetidan kelib chiqib yondashdilar. Umumiy nazariy talqinda esa **sun'iy intellekt** insonning aqliy faoliyatiga xos bo'lgan fikrlash, o'rganish, tahlil qilish va qaror qabul qilish jarayonlarini texnik tizimlar orqali modellashtirish hamda amalga oshirishga qaratilgan texnologiyalar majmui sifatida e'tirof etiladi.

Sun'iy intellekt tushunchasiga nisbatan ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ular mazkur hodisaning murakkab va ko'p qirrali tabiati bilan izohlanadi. Xususan, **Toni M. Massaro** sun'iy intellektni informatika fanining alohida sohasi sifatida baholab, uni inson ongiga xos bo'lgan tilni tushunish, o'rganish, muhokama yuritish, masalalarni hal etish va tarjima qilish kabi kognitiv jarayonlarni amalga oshira oladigan kompyuter tizimlarini yaratishga qaratilgan ilmiy yo'nalish sifatida talqin etadi.⁵ **Amerikalik yurist Ryan Calo** esa sun'iy intellektni funksional yondashuv asosida izohlab, uni muayyan vazifalarni bajarishda inson xatti-harakatlariga taqlid qilishga qodir bo'lgan, olingan ma'lumotlar asosida bosqichma-bosqich takomillashib boruvchi tizim sifatida ta'riflaydi. Muallifning fikricha, sun'iy intellekt alohida shakl yoki funksiyadan ko'ra, ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tahlil qilish jarayonlarini o'z ichiga oluvchi dinamik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.⁶

Xorijiy olim Ryan Abbott sun'iy intellektga nisbatan yanada pragmatik yondashuvni ilgari surib, uni kognitiv faoliyatni talab qiluvchi vazifalarni bajarishga qodir algoritim yoki mashina sifatida tavsiflaydi. Shu bilan birga, u sun'iy intellektni huquqiy tartibga solishda asosiy e'tibor tizimning ichki texnik tuzilishiga emas, balki uning tashqi xulq-atvori va jamiyatga ko'rsatadigan ta'siriga qaratilishi lozimligini asoslaydi. Mazkur yondashuv sun'iy intellekt bilan bog'liq huquqiy munosabatlarni samarali tartibga solishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.⁷

O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida sun'iy intellektga ilk ta'rif Prezidentning 2024-yil 14-oktyabrdagi "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-358-son qarorida berildi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Unda, "**sun'iy intellekt** —insonning bilim va ko'nikmalariga taqlid qilish imkonini beruvchi (shu jumladan, mustaqil ravishda o'rganish va yechimlarni izlash) hamda aniq vazifalarni bajarishda inson aqliy faoliyati natijalari bilan taqqoslanadigan natijalarni olish imkonini beradigan texnologik yechimlar majmui"⁸ deyilgan. Amerika Qo'shma Shtatlarining "Sun'iy intellekt sohasi va boshqa maqsadlarda Milliy tashabbus yaratish to'g'risida"gi Billda sun'iy intellektga quyidagicha ta'rif berilgan, "Sun'iy intellekt –bu AQSh iqtisodiyoti va jamiyatining har bir sohasini o'zgartirishi va ehtimol, butunlay transformatsiya qilishi mumkin bo'lgan vosita. "Sun'iy intellekt" atamasi bu real va virtual hayotda inson tomonidan belgilangan maqsadlar uchun bashorat qilish, tavsiya berish va qaror qabul qilish xususiyatlariga

⁵ Massaro, T. M., & Norton, H. (2016). Free speech rights and artificial intelligence. *Northwestern University Law Review*, 110(5), 1169–1194

⁶ Calo, R. (2017). Artificial intelligence policy: A primer and roadmap. *UC Davis Law Review*, 51(2), 399–435.

⁷ Abbott, R. (2020). *The Reasonable Robot: Artificial Intelligence and the Law*. Cambridge University Press.

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-358-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2025-y., 06/25/223/1076-son //

ega “mashina-inson” tizimidir.⁹ “Mashina-inson” tizimi deganda, shunday tizimni tushunishimiz kerakki, unda inson va texnika elementlarining afzal jihatlari mujassamlashtiriladi.¹⁰

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib, sun’iy intellekt –bu aqliy (intellektual) xulq-atvorni namoyon qilishga (modellashtirishga) qaratilgan turli xil texnologiyalarni o’zida mujassamlashtirgan mustaqil kompyuter tizimidir, degan xulosaga kelish mumkin. Bugungi kunda sun’iy intellekt turli xil prizmalar orqali, xususan, huquqda ham chuqur o’rganilmoqda.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, sun’iy intellektni har tomonlama o’rganish bugungi kunning muhim masalalaridan biridir. Sababibiron fan yutug’i yaratilibdiki, undan nafaqat ijobiy, balki salbiy yo’llarda ham foydalaniladi. Yuridik fanlar doktori S. Bozarov o’z tadqiqotlarida sun’iy intellekt tomonidan keltirilgan zarar uchun javobgarlik masalasiga to’xtalib, uning yaratilishi vafaoliyat yuritishi insonga bog’liq ekanligi sababli oqibatiga ham inson javobgar bo’lishi kerak degan fikrni ilgari suradi.¹¹ Texnologik taraqqiyot rivojlanishining hozirgi holatini hisobga olsak, yaqin kelajakda sun’iy intellekt imkoniyatlari sezilarli darajada oshishi va murakkablashishi mumkin. Xususan, bu borada professor N.Bostromning ta’kidlashicha, 2040-yilga kelib sun’iy intellekt va insonning fikrlash jarayonlaridagi o’xshashlik taxminan 50 foizga teng bo’ladi, 2075-yilda esa, ularning fikrlash jarayonlarini ajratib bo’lmaydi, o’xshashlik 95 foizga yetadi.¹² Biroq hozirgi texnologik rivojlanish sur’atlari bu jarayonni yanada tezlashtirmoqda. Shuning uchun ham N.Bostrom va A.Sandberglar yangi tadqiqotlarida ushbu prognoz ko’rsatgichlarini oldinga tomon o’zgartirishgan.¹³ Bu esa sun’iy intellektni nafaqat jinoyat sodir etish predmeti sifatida, jinoyat subyekti sifatida sun’iy ong etikasi va javobgarlik muammolarini hal etish masalasini chuqur tahlil qilishni talab qiladi.

Sun’iy intellekt tizimlarini ularning bajaradigan vazifalari va funksional imkoniyatlaridan kelib chiqib shartli ravishda bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Mazkur tasniflash nafaqat texnik jihatdan, balki huquqiy tartibga solish nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki sun’iy intellekt tizimlarining darajasi va funksional imkoniyatlari ularning huquqiy maqomi hamda javobgarlik masalalariga bevosita ta’sir ko’rsatadi.

Birinchi toifa — maxsus (tor doiradagi) sun’iy intellekt tizimlari bo’lib, ular aniq belgilangan vazifalarni bajarishga ixtisoslashgan. Bunday tizimlar, odatda, nutqni aniqlash, kasalliklarni diagnostika qilish, ma’lum turdagi o’yinlarni o’ynash kabi konkret funksiyalarni bajaradi va o’z ixtisoslashuv doirasidan tashqarida mustaqil faoliyat yurita olmaydi. Ushbu turdagi sun’iy intellekt tizimlari amaliyotda keng qo’llanilmoqda va ularning faoliyati, asosan, inson tomonidan belgilangan algoritmlar doirasida cheklanadi. Shu sababli, ularning huquqiy bahosi ham ko’proq ularni yaratgan yoki foydalanayotgan shaxslar faoliyati bilan bog’liq holda amalga oshiriladi.

Ikkinchi toifa — universal (umumiy) sun’iy intellekt tizimlari hisoblanadi. Ushbu model nazariy jihatdan insonning intellektual faoliyatiga yaqin darajada bo’lib, turli vazifalarni mustaqil bajarish, yangi bilimlarni o’zlashtirish va o’z faoliyatini moslashtirish imkoniyatiga ega

⁹ National Artificial Intelligence Initiative Act of 2020, H.R. 6216, 116th Cong. (2020).

URL: <https://www.congress.gov/bill/116th-congress/house-bill/6216/text>

¹⁰ то такое человеко машинная система. (n.d.). Perricone MD.

URL: <https://perricone-md.ru/articles/chto-takoe-cheloveko-mashinnaya-sistema>

¹¹ Bozarov S.S. Sun’iy intellekt tomonidan yetkazilgan zarar uchun javobgarlik masalalari. Ilmiy maqola. 15 bet

¹² Bostrom N. Superintelligence: Paths, Dangers, Strategies. —Oxford: Oxford Univ. Press, 2014. —352 bet.

¹³ Bostrom N. The superintelligent will: motivation and instrumental rationality in advanced artificial agents. Future of Humanity Institute Faculty of Philosophy & Oxford Martin School Oxford University. [Minds and Machines, Vol. 22, Iss. 2, May 2012]. —16 bet.

bo'lishi bilan tavsiflanadi. Bunday tizimlar vaziyatga moslashish, tajribani tahlil qilish va mustaqil qarorlar qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi nazarda tutiladi. Hozirgi kunda mazkur turdagi sun'iy intellekt amaliyotda to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, ilmiy tadqiqotlar va yirik texnologik kompaniyalar tomonidan ushbu yo'nalishda izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu toifadagi tizimlar yuzaga kelgan taqdirda, ularning huquqiy maqomini aniqlash va javobgarlik masalalarini hal etish yanada murakkablashadi.

Uchinchi toifa — mashinaviy (ma'lumotlarga asoslangan) sun'iy intellekt tizimlari bo'lib, ular asosan dasturiy ta'minotga kiritilgan yoki o'qitilgan ma'lumotlar bazasiga tayanib faoliyat yuritadi. Bunday tizimlar qaror qabul qilish jarayonida mavjud ma'lumotlarni tahlil qilish va ular asosida xulosa chiqarishga asoslanadi. Ushbu turdagi sun'iy intellekt tizimlari keng qo'llanilayotgan bo'lib, ular orqali katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash va prognozlash imkoniyati yaratiladi. Shu bilan birga, bunday tizimlarning huquqiy bahosida ularning faoliyati uchun kim javobgar ekanligini aniqlash, ya'ni ishlab chiquvchi, operator yoki foydalanuvchi o'rtasidagi javobgarlikni taqsimlash masalalari alohida dolzarblik kasb etadi.

4. Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi jinoyat huquqi tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalarni qo'yimoqda. Sun'iy intellekt tizimlarining avtonomligi, o'z-o'zini o'rganish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati ularni an'anaviy texnik vositalardan tubdan farqlantirib, ularning huquqiy maqomini qayta ko'rib chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, amaldagi jinoyat huquqi institutlari – ayb, sababiy bog'liqlik va javobgarlik subyekti kabi tushunchalar asosan inson psixikasiga asoslangan bo'lib, sun'iy intellekt ishtirokidagi jinoyatlarni to'liq qamrab olishda yetarli darajada samarali emas. Ayniqsa, sun'iy intellekt tomonidan yuzaga keltirilgan ijtimoiy xavfli oqibatlarida javobgarlikni kimga yuklash masalasi – dasturchi, foydalanuvchi yoki boshqa subyektlar o'rtasida taqsimlash – dolzarb muammo sifatida namoyon bo'lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yil www.lex.uz
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 06.11.2021 yil. www.yuz..uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.10.2020 yildagi "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PF-6079-son farmoni
4. Герасимов А.П. Правовые формы осуществления государственной власти. Юридические науки и право. Краснодар 2004-й. 14-15 bet.
5. Bozarov S.S. Sun'iy intellekt sohasini rivojlantirish doirasidagi axloqiy va huquqiy tushdagi masalalar. Yurist axborotnomasi 5-son, 2-jild. Toshkent 2022. 84 –89-betlar.
6. Massaro, T. M., & Norton, H. (2016). Free speech rights and artificial intelligence. *Northwestern University Law Review*, 110(5), 1169–1194
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.10.2024 yildagi Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida PQ-358-son qarori // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 22.11.2025-y., 06/25/223/1076-son //
8. Abbott, R. (2020). *The Reasonable Robot: Artificial Intelligence and the Law*. Cambridge University Press.